NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI
[2024-MAXSUS SON]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

13.00.00-PEDAGOGIKA
journal.namdu.uz
PEDAGOGICAL

Rashidova Nodira Xabibullayevna
Namangan davlat universiteti
fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: kehl2006@mail.ru

TILLAR TA'LIMSHUNOSLIGI (LINGVODIDAKTIKA) TARIXIDA LEKSIKANI O'RGATISHNING RETROSPEKTIV SHARHI

Annotatsiya: *Tilni o'zlashtirish jarayoni ongli va beixtiyor harakatlar umumlashmasida kechishi aniq, lekin bu harakatlarni ta'minlovchi mexanizmlarning "ishga tushishi" til o'rganishga qanday sharoitda, qaysi yoshda kirishilayotgani bilan bog'liq. Masalan, talabalar til birligi yoki nutq birligi hodisalarini ikkita alohida o'quv materiali sifatida o'rganishadi. Ushbu maqolada tillar ta'limshunosligi tarixida leksikani o'rgatishning retrospektiv sharhiga oid fikrlar o'rganilgan va muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar : *Til, ta'limshunoslik, leksika, til birligi, nutq birligi, tilni o'zlashtirish.*

Рашидова Нодира Хабибуллаевна
Наманганский государственный университет
преподаватель кафедры методики
преподавания английского языка

РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ ОБЗОР ПРЕПОДАВАНИЯ ЛЕКСИКИ В ИСТОРИИ ЯЗЫКОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ (ЛИНГВОДИДАКТИКА)

Аннотация: *Понятно, что овладение языком происходит при обобщении сознательных и непроизвольных действий, однако «активация» механизмов, обеспечивающих эти действия, зависит от условий и возраста, в которых начинается изучение языка. Например, учащиеся изучают языковую единицу или события речевой единицы как два отдельных учебных материала. В данной статье исследуются и обсуждаются взгляды на ретроспективный обзор преподавания лексики в истории языкового образования.*

Ключевые слова: *Язык, педагогика, лексика, языковая единица, речевая единица, овладение языком.*

Rashidova Nodira Khabibullaevna
Namangan State University, lecturer at the
Department of English Language Teaching Methods

A RETROSPECTIVE REVIEW OF VOCABULARY TEACHING IN THE HISTORY OF LANGUAGE EDUCATION (LINGUODIDACTICS)

Abstract: *It is clear that language acquisition takes place in the generalization of conscious and involuntary actions, but the "activation" of the mechanisms providing these actions depends on the conditions and age at which language learning is started. For example, students learn a language unit or*

speech unit events as two separate learning materials. This article explores and discusses the views of the retrospective review of vocabulary teaching in the history of language education.
Key words: *Language, pedagogy, lexicon, language unit, speech unit, language acquisition*

Kirish.

Dunyoda davlatlar o‘rtasida o‘zaro diplomatik munosabatlarning o‘rnatilishi bilan bir paytda chet tillarni o‘rganish, u orqali boshqa xalqlarning urf-odati, hayot tarzini o‘rganishni ham boshlangan. Savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishi chet tillarni amaliy (kommunikativ) va umumta’limiy maqsadlarda o‘rganishning yo‘lga qo‘yilishga sabab bo‘lgan. Qadimiy Yunoniston, Misr va Rimda madaniyat taraqqiyoti davrlarida o‘zga xalqlar tillarini o‘rganish ommalashgan. O‘rta asrlar madaniy yodgorliklari va Yevropa tillariga kirib kelgan xorijiy so‘zlar shundan dalolat beradiki, xalqlar o‘zgalar tilini o‘rganish borasida katta tajriba to‘plagan.

Chet tillarni o‘rganishga intilish Yevropada taxminan 2000 yil avval Rim davlati paydo bo‘lgan davridan boshlangan bo‘lsa, Osiyoda Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va rivojlanish davridan boshlangan. O‘tgan davr mobaynida chet tillarni o‘rgatish va o‘rganishda qo‘llanilgan turli yondashuvlarda leksikaning ahamiyati ham turlicha bo‘lgan. [1] Mazkur davrlarda leksikani o‘rgatish asosiy amaliy yetakchi maqsad hisoblangan bo‘lsa-da, uni o‘rgatishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan davrlar ham bo‘lgan. Leksikaning hozirgi kundagi lingvodidaktik maqomini aniqlashtirib olish maqsadida uni o‘qitish metodikasining rivojlanish bosqichlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Adabiyotlar tahlili:

Chet til o‘qitish metodikasi tarixiga oid dastlabki ma’lumotlarda eramizning ikkinchi asrida Rimlik bolalarga Grek tilini o‘qitish tajribalari yoritilgan. O‘tmishdagi maktablarda talabalar, avval, alifboni keyin so‘zlarni, jumlalarni va qisqa mantlarni o‘qishni o‘rganishgan. 1611-yilda Villiam Bas (V.Bas) kontekstlashgan taqdimot orqali leksikaning o‘zlashtirilishi to‘g‘risidagi risolasida 1200 ta maqolda keng qo‘llanilgan leksika co‘zlarning ma’nosini kontekstda mustaqil fahmlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning omonimlarini o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar bayon etgan. Kontekstlashgan leksika g‘oyasiga asoslanib darslik yaratgan Yan Amos Komenskiy (Y.A.Komenskiy) lotin tilidagi 8000 ta umumiy leksikani o‘rgatishda induktiv yondashuvni taklif qiladi. Ushbu leksik material nutqiy mavzular doirasida umumlashgan bo‘lib, ularning ma’nosini ochib berish uchun rasm va tasvir(illyustratsiya)lardan foydalanilgan. Chegaralangan leksika tushunchasi keyinchalik “Leksikani chegaralash harakati”ni (Vocabulary Control Movement) boshlab berdi. V.Bas va Ya.A.Komenskiy kabi olimlar tillar o‘rganishda leksikaning o‘rni hamda mavqeini oshirishga urinishgan. Tillarni o‘rganishda grammatikaga yo‘naltirilgan qoidalarni yodlatish va o‘rgatishdan voz kechib, o‘rganilayotgan ingliz tilidagi so‘zning tarjimasini matn mazmuni bilan bog‘lash (assosiatsiya o‘rnatish) orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatib borishni targ‘ib qilishgan. Afsuski, an’anaviy metodlardan biri hisoblangan grammatika-tarjima metodi tarafdorlari leksikani o‘rgatishga osonlikcha yon bosishmadi. [3]

Lotin tili grammatikasini o‘qitish maqsadida yaratilgan darslik va qo‘llanmalar ingliz tilida ham o‘quv materiallarini yaratishga andoza vazifasini bajaraverdi. Darslik mualliflari o‘zlari to‘g‘ri deb bilgan qoida va ko‘rsatmalarni darsliklarga kiritdilar. Noto‘g‘ri deb hisoblangan grammatik hodisalarni darslik-larda berishni rad etishdi. 1762-yilda Robert Lousning (Robert Louis) “Ingliz tili grammatikasiga kirish (Short Introduction to English Grammar)” nomli qo‘llanmasi nashr etildi. Bu qo‘llanma tillarni o‘rgatishda grammatik material o‘rni va ahamiyatini yoritishda asosiy manbaaga aylandi. Tillar o‘rganishda grammatika va til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan ushbu qo‘llanma dunyoda umume’tirofga sazovor bo‘ldi. Bu holat

grammatikaning ingliz tili o‘rgatishdagi mavqeini saqlab qoldi. Biroq, grammatik materialning ustunligi tillarni o‘rganishda va o‘rgatishda kutilgan natijalarni bermadi.

Ingliz tili o‘qitishda kommunikativ metodlar haqida N.Xomskiy (N.Chomisky), K.Kendlin (K.Kendlin), X.Vindovson (X.Vindovson), T.Pika (T.Pika), R.Oksford (R.Oxford) kabi tadqiqotchilar o‘zlarining maqola va tezislarini chop etdilar. Kommunikativ yondashuvda til o‘rgatishda “Learning to use English and using English to learn it” shiori ostida chet tilni o‘rganish va o‘rgatishga doir alohida konsepsiya ishlab chiqildi.

Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, birinchidan, mashg‘ulotlarda namunaviy standart so‘z va iboralardan foydalanishga, e’tiborni asosiy leksik birlik hamda lingvistik funksiyalarga e’tibor qaratish lozimligi talab etildi. Shuningdek, darsni tashkil etish, o‘quvchilarni baholash, rag‘batlantirish, topshiriqni to‘g‘ri bajarish borasida yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma va tavsiyalar berishga (algoritmik qoidalar) asosiy e’tibor qaratildi.

Bu konsepsiya ishlab chiqilmasidan avval o‘quv jarayonida nimani o‘rgatish masalasining mohiyatiga oid mutaxassislarning turli, ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi fikrlari bildirib kelinayotgan edi. Bu borada asosiy muammo mavjud bo‘lib, nima o‘rgatiladi? savoliga javob berishda aksariyat olimlar ta’lim mazmuni o‘rgatiladi, deb aslida to‘g‘ri, lekin umumiy javobni qaytaradilar. [4]

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tillar ta’limshunosligi (lingvodidaktika) tarixida leksikani o‘rgatishning retrospektiv sharhiga oid mulohazalar muhokama qilininadi. Leksikani o‘rgatishning retrospektiv sharhi tarixi va o‘rganilganlik darajasiga oid yondashuvlar o‘rganiladi.

Tahlillar va natijalar.

O‘zbekiston chet til ta’limshunosligida ham o‘qituvchilar tomonidan audiolingval metodning bir qator ijobiy xususiyatlari o‘qitish amaliyotida keng qo‘llanilgan. Xususan, nutq namunalarining til o‘rgatish birligi darajasida qo‘llanilishi, og‘zaki nutqning ilgarilashi, og‘zaki nutq materialida o‘qish va yozuvning o‘rgatilishi amaliyotda tegishli o‘zgarishlar bilan qabul qilingan.

Bundan tashqari, audiolingval metoddan bir qancha jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod namoyondalari P.Guberina (P.Gubirina) va P.Rivan (P.Rivan) leksik materialni tanlashga alohida e’tibor berganlar. Audiolingval metodda tillarni o‘rgatishda nutq namunalariga ahamiyat berilgan bo‘lsa, audiovizual metodda hayotiy mavzularda erkin fikr yuritishga asosiy e’tibor qaratilgan. Til o‘rgatishda 1500ta atrofidagi so‘z va leksik biriklar tanlangan. Chet tilni o‘rgatishda turli texnikaviy vositalarga katta o‘rin berilgan.

Chet til o‘rgatish tarixida Fransua Guen metodi (Francois Gouin, 1831-1898) ham sezilarli iz qoldirganini ham bayon qilib o‘tishni zarur deb topdik. Fransuz metodisti F.Guen ingliz tili o‘qitish metodikasida birinchi bo‘lib, leksikaning mavzular bo‘yicha o‘rgatish masalalarini tadqiq qilgan. Ingliz tili o‘rgatishda uyda va maktabdagi hayot (home and school life), tabiat va jamiyat (nature and social life) mavzulari bo‘yicha mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Tabiiy metod vakillari hisoblangan tadqiqotchilar kishi o‘z ehtiyojidan kelib chiqib, til o‘rganishi lozimligi, o‘rgatish birligi qilib so‘z emas balki, gap tanlanishi, til o‘rganishda og‘zaki nutq birlamchi tomoyil bo‘lishi haqidagi qonuniyatlar ishlab chiqilgan. [2]

F.Guen chet til o‘rgatish tizimining takomillashuviga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. F.Guen bajarilishi lozim bo‘lgan nutq faoliyatining mantiqiy ketma-ketligiga asoslanib, leksika semantizatsiyasini “ichki ko‘rinishi” yordamida o‘rgatilishini qayd etib o‘tgan. Ingliz tili o‘qitishda quyidagi tematik mavzular asos qilib olingan. Ular quydagilar: “uy va maktab (home

and school), jamiyat va hayot (society and life), tabiat va hunarmandchilik (nature and handicraft)".

Bu mavzular o'z navbatida 10-15ta atrofidagi kichik mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Har bir mavzu 50ta darsni o'z ichiga olgan. Har bir darsda u yoki bu nutqiy faoliyatning izchil rivojlanishini ifodalovchi 20-30 ta ketma-ket so'z va yangi leksik birliklar majmui ishlab chiqilgan. O'qituvchi ularni nomlash uchun muayyan turdagi nutqiy harakatlarni bajargan. Yuqoriroq, rivojlangan bosqichda mazkur turdagi mashqlar matn sifatida taqdim etilgan. Yangi so'z va leksik birliklarni mavzularga bo'lib o'rgatish hozirgi metodik tushunchada "nutq vaziyatlarni vujudga keltirish" deb atalgan.

F.Guen tomonidan ishlab chiqilgan tizim puxta o'ylangan, izchil va emotsionalligi bilan diqqatga sazovor hisoblanadi. O'rganishning dastlabki bosqichlarida "mavzular" o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, nutq faoliyatining barcha turlarini rivojlantiradi.

Taniqli nemis metodistlaridan M.Valterning (M. Valter) metodik sistemasi yuqorida bayon etilgan mavzularni o'z ichiga oladi va leksik materialni o'rgatish tabiiy metod doirasida ishlangani bilan ulardan farq qiladi. M.Valter ingliz tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishini ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqotchi olim o'zining lingvodidaktik tadqiqotlarida leksikaning ma'nosini ochishning bir qator usullarni ko'rsatib o'tadi: 1. Show the subject and state (predmet yoki uning rasmini, xatti-harakatini ko'rsating); 2. Discribe the synonym antonym in foreign language (cinonim, antonim va ingliz tilida ularni ta'riflang); 3. Present the unfamiliar word in a sentences or compound (notanish so'zni gap yoki jumlada (kontekstda) taqdim eting va h.k.z).

M.Valter leksikani o'rgatishga oid ko'plab mashqlar tizimi tavsiya etadi. Jumladan, mashqlardagi so'zlarni guruhlarga ajratib o'rgatishga e'tibor qaratadi. Masalan, antonim va sinonim so'zlarni topish, bir o'zakli so'zlarni tanlash va mavzuga oid so'zlarni tasniflash kabilar.

Atoqli ingliz metodisti H.Palmer (Harold Palmer, 1877-1949) ingliz tilini til sifatida o'rgatish bilan uzoq muddat shug'ullangan tadqiqotchilardan biri H.Palmer ingliz tili o'qitish mazmunini belgilashga ilmiy yondashgan olimlardan biridir. H.Palmer metodiga ko'ra til o'rgatish uchun oddiy adabiy nasr va so'zlashuv nutqi tavsiya etiladi. Ingliz tili o'rgatish jonli so'zlashuv nutqidan boshlanib, keyin o'qishga doir mashqlar bajariladi. Bu borada matnlarga qo'yiladigan metodik talablar ham ishlab chiqilgan. Metodikada birinchi bo'lib leksik birlik (lexicological unit) tushunchasini muomilaga kiritdi, uning shakli, ma'nosi va qo'llanishi haqida fikr yuritdi. Ingliz tili o'qitish metodikasiga ergon tushunchasi H.Palmer tomonidan kiritildi va tushunchaning ilmiy-metodik ta'rifi keltirildi.

Xulosa.

Intensiv metodlar qisqa muddatda, til o'rganishning ichki imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalangan holda, o'quvchilarning o'zaro ijodiy nutqiy muloqotini ta'minlagan holda ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida real nutqiy vaziyatga yaqinlashtirilgan situativ-rolli nutqiy muloqotga asoslanadi. Real nutqiy vaziyatlar o'quvchilarni ijodiy nutqiy faoliyatga undaydi, leksik material va nutqiy malakalarni rivojlantirishni faollashtiradi [1].

Ingliz tili o'qitishning intensiv metodlari xususiyatlarini quyidagicha tavsiflanadi:

1. Qisqa muddatda katta hajmdagi sohaviy va kasbiy leksik material o'zlashtiriladi;
2. O'quv jarayonida o'quvchilarning chet til o'rganishlari yuqori darajada faollashadi;
3. Ingliz tilini o'rgatishda rolli o'yin va topshiriqlar beriladi;
4. Tillar o'rganish jarayoniga zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari (audiovizual va ko'rgazmalilik) jalb etiladi.

Bundan tashqari, qisqa vaqt ichida ta’lim yo‘nalishining xususiyati, talabalarning kasbiy ehtiyoj va qiziqishlari, ixtisosligi bo‘yicha ma’lum bir mavzular doirasida og‘zaki nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga erishildi. Mazkur metodlarning yana bir afzalligi shundan iboratki, til o‘rganishga bo‘lgan o‘quvchilarning qiziqish va motivatsiyalari oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Lozanov G. Suggestology and Outlines of Suggestopedy // London, Routledge. 1992. – 386 p.

2. MacWhinney B. A unified model of language acquisition // In: Kroll JF, De Groot AMB, editors. Handbook of bilingualism: Psycholinguistic approaches. Oxford University Press; New York, NY: 2005. pp. 49–67.

3. Rashidova N. H. ICT in English language teaching and learning //Golden Brain. – 2023. – T. 1. – №. 8. – C. 120-123.

4. Nodira R. FEATURES OF THE FORMATION OF PROFESSIONALLY ORIENTED LANGUAGE COMPETENCE OF MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 6.